O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’IIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

"Tasdiqlandi"
Rektor M.T.Xodjiyev
________________
"29" 08 ________ 2024-yil
№ 1.22 - 2024

# QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK FANI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Guliston-2024

Scanned with ACE Scanner

| | |
|---|---|
| Fanning nomi | Qiyosiy adabiyotshunoslik |
| Fan/modul kodi | QA1605 |
| Fan/modul turi | Majburiy |
| O‘quv yili | 2026/2027 |
| Fan semestri | 6 |
| Ta’lim tili/turi | O‘zbek/kunduzgi |
| Fanga ajratilgan soat/kredit | 150/5 |
| Auditoriya soat/kredit | 60/2 |
| Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soat/kredit | 90/3 |

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanni maqsadi:** jahon adabiyoti namunalarini bir butunlikda, umumiy poetik tamoyillar asosida o‘rganish, milliy adabiyotni boshqa millatlar badiiy tafakkuri bilan mushtarak hodisa sifatida talqin etish, jahon adabiyotining yetuk namoyandalari biografiyasi, adabiy muhiti, poetik mahorati, uslubi, badiiy konsepsiyasi masalalarini o‘rganishdan iborat.

**Fanning vazifasi:** jahon xalqlari adabiyotining badiiy, tarixiy, falsafiy, ruhiy-ma‘naviy omillari haqida tushuncha berish, mif va adabiyot munosabati masalasini o‘rganish, jahon xalqlari madaniy-ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutgan adabiy davrlarni o‘rganish, adabiy oqim va yo‘nalishlarning shakllanish tarixi, nazariy-estetik asoslari, adabiy-tarixiy jarayonda tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritib berish, jahon adabiyoti tadrijida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar biografiyasi, asarlari, adabiy muhiti, uslubi va badiiy mahoratini ilmiy talqin etish, jahon adabiyotining eng sara namunalari misolida adabiy turlar va janrlar takomili muammolari haqida fikr yuritish, Sharq-u G‘arb masalalarini qiyosiy-tipologik hamda tadrijiylik prinsiplari asosida talqin etish, jahon adabiyoti namunalarining o‘zbek tilidagi tarjimalari va adabiy ta‘sir masalalariga diqqat qaratish va o‘rganish.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM

**(Ma’ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta’lim mavzulari)**

**II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

| № | Modul nomi | Ma’ruza mashg‘ulotida ko‘riladigan mavzular | Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha mavzulari | Seminar mashg‘ulot bo‘yicha mavzulari | Mustaqil ta’lim va mustaqil ish mavzulari |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1-mavzu: “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining maqsad va vazifalari, predmeti va mazmuni | Dunyo xalqlari, xususan, Sharq va G‘arbning shoh asarlarini o‘rganish va estetik tahlil etish, bu asarlarning insoniyat hayotidagi ahamiyatini tushuntirish, bugungi adabiy jarayongacha bo‘lgan adabiy tamoyillar, maktablar, yo‘nalishlar, oqimlar, ijodiy metodlar va individual ijodkorlarga xos usul va poetik kashfiyotlar | “Alpomish” va “Odisseya” dostonlaridagi o‘xshash syujet, obraz, detal va motivlar | Qiyosiy tahlilning ilmiy-nazariy asoslari va prinsiplari. Qiyosiy tahlil metodologiyasi | Sentimental adabiyotning Sharqu G‘arbga oid xususiyatlari |
| 2 | 2-mavzu: Ilohiy kitoblar va mifologik tafakkur masalasi | Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Arastu – adabiyotshunos. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade’. Tazkiralar – Sharq adabiyotshunosligi muhim | Sharq va G‘arbda teatrning shakllanishi | Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti sifatida | Romantizmning ijtimoiy-estetik omillari |



Scanned with ACE Scanner

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | manbasi. G'arb adabiyotshunosligi. Bualo, Belinskiy tadqiqotlari. Gegel "Estetika"si. Adabiyotshunoslik rivojida matbuotning o'rni. Adabiyotshunoslikning estetik did va ijtimoiy fikr o'sishiga ta'siri | | | |
| 3 | 3-mavzu: Eng qadimgi drama qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida | Adabiy tur, drama, komediya, tragediya, antik teatr, genezis, dialog, harakat, dramatik motiv, estetiklik | Aristotel asarlari Forobiy va Ibn Sino talqinida | Asar poetikasi – komparativistika obyekti | Modernizm tarixi, ijtimoiy, falsafiy, psixologik omillari |
| 4 | 4-mavzu: Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sinolarning adabiy-estetik qarashlari | Adabiy turlar, mimesis nazariyasi, qadim yunon dramaturgiyasi, janr, xarakter, fabula, uslub, mimesis, katarsis, perepitiya. | Sharq uyg'onish davri va G'arb Renessansining bog'liqligi | Adabiyotlararo jarayonlarning shakllari | Postmodernizm va intertekstuallik |
| 5 | 5-mavzu: Sharq va G'arb adabiyotida o'rta asrlar masalasi. Sharq va G'arb renessans adabiyotini qiyosiy o'rganish | Injil, masihiylik(xristian) dini, islom dini, samoviy kitoblar, misteriyalar, liturgik teatr, karnaval madaniyati, ritsar romani, turbadur lirikasi, ritsarlik romanlari, kurtuaz lirikasi | Sharq va G'arb klassisitsizm davri adabiyoti estetikasi | O'zbek adabiyotshunosligida qiyosiy tadqiqotlar. Oybek va jahon adabiyoti | Dunyo romanchiligi va o'zbek romani |
| 6 | 6-mavzu: Uyg'onish davri badiiy tafakkuri tipologiyasi | Sharq va G'arb hikoyatlari, "Ming bir kecha", "Dekameron", "Don Kixot",badiiy syujet tipologiyasi, "universal odam", "ayollar emansipasiyasi" | Yevropa ma'rifatchiligi va Sharq xalqlari jadidchilik harakati | Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm | Oybek va Pushkin ijodida peyzaj tasviri |
| 7 | 7-mavzu: Sharq va G'arb klassisitsizmi: umumiylik va xususiylik | Klassitsizm, klassik, pozitivizm, "taqlid", "oliy did", "klassik uslub", "klassik syujet va obraz", "uch birlik qonuni" | Sharq va G'arb adabiyotida ijodiy metod va oqimlarning adabiy-tarixiy omillari va badiiy xususiyati | Omon Muxtor va Oskar Uayldning badiiy-estetik olami | A.P. Chexov va A. Qahhor hikoyalarida falsafiylik |
| 8 | 8-mavzu: Sharq va G'arb ma'rifatchiligi tipologiyasi: fransuz va jadid ma'rifatchiligi | Ma'rifatchilik, ma'rifatchilik harakati, Sharq ma'rifati, G'arb ma'rifatchiligi, jadid adabiyoti | Sharq zamonaviy adabiyotining vujudga kelish omillari | Alisher Navoiy va Vilyam Shekspir ijodida badiiy tamoyillar mushtarakligi va o'ziga xoslik | Sharq va G'arb adabiyotidagi an'anaviy obrazlar |
| 9 | 9-mavzu: : Sharq va G'arb badiiy tafakkurida sentimentalizm, romantizm, naturalizm, realizm | Sentimentalizm, "sentiment", sentimental yozuvchi uslubi, romantizm va romantika, romantizm ideali, natualizm, realizm, | | Shaq va G'arb roman nazariyasiga doir maqolalarini qiyosiy o'rganish. | O'zbek romanlarida antik obrazlar |



Scanned with ACE Scanner

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tanqidiy realizm, oliy realizm | | | |
| 10 | 10-mavzu: XIX-XX asrlar Yevropa romanchiligi va sharq zamonaviy nasri. Yevropa modernizmi va XX asr yangi o‘zbek adabiyoti | Roman janri, ma’rifatchilik romani, romantizm, naturalistik roman, realistik roman, roman syujeti, roman kompozitsiyasi, roman qahramoni. Modernizm, “absurd qahramon”, modernistik ramz, ma’nisizlik, yolg‘izlik, “o‘zbek modern adabiyoti”, postmodern, adabiy oqim | | Badiiy asarni tahlil qilishda tipologik komponentlarni belgilash. J.Bayron va A.Cho‘lpon she’rlarining qiyosiy tahlili | Abadiy mavzular va ularning qiyosiy talqini |

## III. Fanni o‘qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

**Ushbu fanni o‘zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:**

- Sharq va G‘arbning shoh asarlarini o‘rganish va estetik tahlil etish, bu asarlarning insoniyat hayotidagi ahamiyatini tushuntirish, jahon adabiyotining davrlari, asosiy figuralari, epik, lirik, dramatik asarlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish, ularni Sharq va o‘zbek adabiyoti namunalari bilan qiyosiy o‘rganish haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak; **(bilim)**;
- milliy va umuminsoniy adabiy-nazariy an’analarning o‘zaro bog‘liqligini, Sharq va G‘arb dunyosida madaniy, adabiy hayotning bir-biriga ta’sirini bayon qilib berish, adabiy oqim va metodlari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, milliy adabiyotimiz bilan umumiy hamda tipologik jihatlarini tizimli tushunish, tahlil etish va ulardan foydalana olishi lozim; **(ko‘nikma)**;
- Markaziy Osiyo, jumladan, Mavorounnahrdagi qulay geografik sharoit mintaqada madaniyat, adabiyotning juda qadimgi davrlarda shakllanishiga sabab bo‘lganligini adabiyot, san’at asarlari misolida isbotlab berish, o‘zbek adabiyotining jahon adabiyoti kontekstidagi qonuniy o‘rnini anglash va baholash, mavjud adabiy manbalar asosida ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalar chiqara olish ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak. **(malaka)**.

## IV. Ta’lim texnologiyalari va metodlari

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

## V. Kreditlarni olish uchun qo‘yiladigan talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Jo‘raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik. - T.: Lesson press, 2021.
2. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. - T.: Akademnashr, 2020.
3. Qosimov A. Ҳамроқулов A., Xo‘jayev. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Barkamol fayz mediya, 2019.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2019.



Scanned with ACE Scanner

## Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. –Т. : Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
3. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. – Т.: Маънавият, 2008.
4. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий– танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т.: Фан, 2008.

## Axborot manbalari

1. http://natlib.uz – A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. http://ensiklopediya.uz - O‘zbekiston Milliy ensiklopediya
3. http://ziyouz.uz – O‘zbek va jahon adabiyoti portal
4. http://ziyonet.uz - O‘zbekiston milliy ta’lim portal
5. http://www.infolib.uz – Pespublika Axborot kutubxona markazi

**Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

**Fan/modul uchun mas’ul:**

I.Saymuratova – Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dots.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar:**

I.Yoqubov – A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

D.To‘rayeva – Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



Scanned with ACE Scanner